

Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun qabul qilindi

2022 yilning 8-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat organlari va tashkilotlarida mehnat qilayotgan 118 ming nafardan ortiq davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomini belgilovchi va ular faoliyatini yagona qoidalar asosida huquqiy tartibga soluvchi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni imzoladi.



"DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TO'G'RISIDA"GI QONUNNING MAZMUN-MOHİYATI

U tanlov asosida (haftasiga 5 kunlik) ishga qabul va kadrlar rotatsiyasi, qolaversa, tadbirkorlik qilish, xorijda hisobraqam ochish va manfaatlar to'qnashuvini taqiqlash, daromadlar va mol-mulkni majburiy deklaratsiyalashni nazarda tutadi.



DAVLAT XIZMATCHILARIGA TADBIRKORLIK MUASSISI BO'LISHI TAQIQLANADI

Qonun bilan davlat organlarida fuqarolik xizmatini o'tash tartibi, ushbu sohada davlat boshqaruvi, davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi belgilandi



Davlat xizmatchisi o'z rahbarining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish, korrupsiya haqida xabar berganda davlat himoyasida bo'lish huquqiga ega



Davlat xizmatchisi tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, ularning muassisi bo'lishi, O'zbekistondan tashqarida hisobvaraqlar ochishi, chet elda ko'chmas mulk olishi taqiqlanadi



Davlat xizmatchisi daromadlari va mol-mulki to'g'risida deklaratsiya berishi kerak



Prezident tomonidan tasdiqlanadigan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining reestri Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan yuritiladi



Davlat xizmatiga davlat tilini biladigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan O'zbekiston fuqarolari qabul qilinadi



Davlat xizmatchilari uchun 5 kunlik ish haftasi va haftasiga 40 soatdan oshmaydigan ish davomiyligi belgilanadi

Davlat xizmatchilariga haq to'lash quyidagilardan iborat:

- ✓ bazaviy lavozim maoshi
- ✓ ko'p yillik xizmati uchun qo'shimcha to'lov
- ✓ malaka darajasi uchun qo'shimcha to'lov
- ✓ eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarga erishganlik uchun ustama
- ✓ hisobot davri yakunlari bo'yicha rag'batlantiruvchi to'lovlar



Davlat xizmatchilariga hayfsan, jarima, ishdan bo'shatish bilan bir qatorda malaka darajasini pasaytirish va lavozimini pasaytirish tarzidagi intizomiy jazolar ham qo'llaniladi



Davlat xizmatchilariga 27 kundan kam bo'lmagan yillik asosiy ta'til beriladi


Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi.



Manba: O'RG-788-son, 08.08.2022-y.

@huquqiyaxborot_lotin

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2733-sonli qaroriga muvofiq mazkur qonun hujjatining mazmun-mohiyatini va ahamiyatini tushuntirish maqsadida “O‘zyo‘lloyiha” DUK xodimlari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi.



II. Qonunning mazmun-mohiyati:

Qonun bilan quyidagilar belgilanmoqda:

- * Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qoidalar
- * Davlat fuqarolik xizmatini tartibga solishda davlat organlarining asosiy vazifa va vakolatlari
- * Davlat fuqarolik xizmatchilarining maqomi, huquq va majburiyatlari, huquqiy va ijtimoiy himoyasining kafolatlari
- * Davlat fuqarolik xizmatiga kirish, uni o‘tash va tugatish asoslari
- * Davlat fuqarolik xizmati tizimida korrupsiyaning oldini olish choralari


Yig‘ilishda korxonada Yuridik byurosi boshlig‘i Sadoqat Samiyeva tomonidan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyati batafsil sharhlab berildi.



Ushbu yig‘ilishda Davlat rahbari davlat xizmatini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlariga to‘rtlab, ushbu masala qariyb 30 yildan beri keyinga surilib kelinayotganligini qayd etdi hamda mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda ikki yil davomida, chuqur muhokamalar asosida ushbu Qonun tayyorlanganligini alohida ta’kidlab o‘tdi

Qonunning ishlab chiqilishi – juda mashaqqatli jarayon bo‘lib, 15 ta vazirlik va idoralar mutaxassislari, xorijiy ekspertlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida tayyorlangan, jamoatchilik vakillari, jumladan, jurnalist va blogerlar ishtirokida 10 dan ortiq muhokamalar tashkil etilgan.

Mazkur Qonunning qabul qilinishi qariyb 30 yildan buyon intizorlik bilan kutilgan, 35 million aholining hayotini yengil qiladigan, kuyfiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan dasturamali normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi



Qonun mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishda Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan targ'ibot materiallaridan foydalanildi.